

YANGIBOYEV Adhambek Esanovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrası tayanch
doktoranti

UMAR NASAFIY TAFSIRI MUQADDIMASIDAGI O'ZIGA XOSLIK

СПЕЦИФИКА ВВОДНОЙ ЧАСТИ ТАФСИРА УМАРА НАСАФИ

SPECIFICITY IN THE INTRODUCTION OF UMAR NASAFI'S TAFSIR

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur olim Abu Hafs Umar Nasafiyning tafsir sohasida yozgan “Al-Akmal al-atval” asarining o'ziga xos jihatlari, uning muqaddimasida kelgan boblar va ulardagi bayon qilingan muhim mavzularning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qur'on, tafsir, “ulum al-Qur'on”, hadis, qiroat, mufasssir.

Аннотация: В данной статье рассматривается специфика труда «Аль-Акмаль аль-Атваль», написанного известным ученым Абу Хафсом Умаром Насафи в области толковании Корана, главы перечисленные в вводной части труда, а также важные темы затрагиваемые в них.

Ключевые слова: Коран, тафсир, “улум аль-Куран”, хадис, декламация, муфасссир.

Annotation: This article discusses the specifics of the work of Al-Akmal al-Atwal, written by the famous scholar Abu Hafs Umar Nasafi in the field of commentary, chapters involved in the introduction and important topics covered in them.

Keywords: Koran, tafsir, “ulum al-Koran”, hadith, recitation, mufasssir.

KIRISH

Qur'oni karimni ilmiy jihatdan o'rganish va musulmonlarga tadbiq etish, u nozil bo'lgan davrda qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, uning ma'nolarini arab va ajam xalqlariga to'g'ri yetkazib berish barcha zamonlarda ham dolzarb

bo'lib kelgan. Bugun ham bu sohada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilib, buyuk ulamolar merosini o'rganish har qachongidanda yuksak darajaga chiqqan desak xato bo'lmaydi.

Movarounnahr diyorida yashab, tafsir sohasida samarali ijod qilgan olimlardan Imom Moturidiy (vaf. 944), Abu Lays Samarqandiy (vaf. 983), Mahmud Zamaxshariy (vaf. 1144), Abu al-Barakot Nasafiy (vaf. 1310) va boshqalarni keltirish mumkin. Asosan aqida va ta'rixga oid asarlari bilan mashhur, qolaversa tafsir borasida ham salmoqli ijod qilgan Abu Hafs Umar Nasafiy (vaf. 1142) ham bu zaminning e'tirofqa loyiq mufasssirlaridan biridir. U bir emas, balki, uchta tafsir yozgan. Ulardan biri, qamrovi jihatidan eng mukammali ko'pchilikka ma'lum bo'lgan “Al-akmal al-atval” asaridir. Ushbu asar bilan tanishar ekanmiz, uning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari borligiga guvoh bo'lamiz.

ASOSIY QISM

Bu tafsirning boshqa tafsirlardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlaridan biri alloma boshqa ko'pgina mufasssirlar kabi to'g'ridan-to'g'ri suralarning tafsiriga kirishmasdan o'zgacha uslubni qo'llaydi. Fotiha surasining tafsiriga kirishishdan oldin, asarning muqaddima qismida Qur'on ilmlariga oid yigirmadan ortiq mavzulashtirilgan boblarni keltiradi va qisqacha qilib oyat va hadislar asosida bayon qilib beradi.

Ushbu asar qo'lyozmasining kirish qismi basmaladan¹ so'ng “Shayx, imom, alloma, auhaddis, hofiz Najm ad-din Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy aytadi” deb boshlanadi. Shundan so'ng, go'zal va mo'jaz jumlar bilan Alloh taologa hamd, Muhammad sollallohu alayhi vasallamga salavotlar aytib, Alloh taolo o'z rasulini bayon (Qur'on) bilan yuborganini, ushbu Kitob qarshisida fasohatlilar ojiz, balog'atlilar soqov ekanliklarini va birlashib qancha harakat qilsalar ham unga o'xshashini keltira olmasliklarini aytadi [1:1a].

Imom Nasafiy tafsir qilish mobaynida bir yoqlamalikdan qochadi. Barcha jabhalarini qamrab olishga harakat qilib, ham shar'iy, ham e'tiqodiy, ham odob-axloq va boshqa masalalarni bayon qilishga harakat qiladi. Buni u keltirgan ushbu jumlar misolida ko'rish mumkin: “Undagi

¹ بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ deb aytilish yoki yozish basmala deyiladi.

(Qur'on) misollarni tadabbur qiluvchilarga ibrat, buyruqlarini esa bayon qilib berishini istaganlarga hidoyat qildi. Unda hukmiy vojibotlarni izohlab, halol va xaromni bayon qildi. Unda (bandalar) anglashliklari uchun ma'ruzalar qilib, zarbulmasallar keltirdi. Unda g'ayb xabarlarini bildirdi". Ushbu sharhdan so'ng Qur'oni karim barcha narsani qamrab olganligi, unda bandalar uchun zarur bo'lgan barcha ilmlar keltrilganligini ifodalovchi quyidagi oyatni keltirib, o'z so'zlarini quvvatlaydi:

"...Kitobga hech narsani qo'ymay yozganmiz..." (An'om surasi 38-oyat) [1:1a].

Kirish sifatida yozilgan ushbu bobning oxirida esa qisqacha qilib, bu asarni yozish borasidagi maqsadi, tafsir qilishda nimalarga e'tibor berganligi, nimalarni asos qilib olganligi va oyatlarni sharhlashdagi uslubi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi. Qur'oni karim barcha shariat ilmlarining asosi ekanligi, umrining oxirigacha ushbu ilmni o'rganishni, unda bir mo'jaz sharh yozishlik bilan bor kuchini sarf qilishni maqsad qilganligini aytadi. Shuningdek, Ushbu sharh tafsir, lug'at, e'rob va qiroatlar borasidagi tafsilotlarni, ahli bid'at va ahli zalolatlarga qarshi raddiyalarni hamda dalil sifatida keltirilgan hadislarni qamrab olishini ta'kidlaydi. So'ngra uni yozishdan maqsadi Alloh roziligi ekanligini aytib shunday deydi: "Men buni o'zim uchun eslatma, qabrga kiradigan kunim uchun zaxira va o'limimdan so'ng amali solih bo'lishligi uchun qildim. Alloh taolo aytadi:

"U kunda insonga avvalu oxir qilganining xabari berilar" (Qiyomat surasi 49-oyat).

Alloh taolo shunday deydi: **"Har bir jon nimani taqdim qildi, nimaning ta'xir qildi"** (Infitor surasi 5-oyat).

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam "Agar inson vafot qilsa uchta amalidan boshqa hammasi kesiladi. Ular: sadaqayi joriya, manfaat beradigan ilm va uning uchun duo qiladigan solih farzand" deganlar" [1:1b].

Shu tariqa birinchi bobni ushbu kitobni "Akmal al-atval" deb nomlaganligi va Alloh taolo bu ishini xolis amallardan qilib, o'ziga, ota onasiga hamda uni xohlagan har bir kishiga manfaatli bo'lishini so'rab duo qilish hamda U Zot duolarni eshituvchi va ijobat qiluvchi Zot ekanligini zikr qilish bilan tamomlaydi. Bu mavzu qisqagina bo'lsada, o'zida ushbu kitob haqidagi umumiy tavsiflar va muallifning tafsir qilish uslubini juda go'zal ko'rinishda ifodalab bergan.

Imom Nasafiy ikkinchi bobni "Babu zikri jumalin min fazoil al-Qur'an", ya'ni Qur'on fazilatlarini borasida eslatmali iboralar deb nomlaydi. Qur'on fazilatlarini, unga bo'lgan targ'ib, uni o'rganuvchi, o'quvchi, eshituvchi va unga amal qiluvchining fazli haqida ulamolar juda ko'plab kitoblar yozganligi, bu juda keng mavzu ekanligi, shunday bo'lsada bu haqda qisqacha eslatma qilishini aytadi.

Avvalo mo'min kishi bu kitob olamlarning Robbisi, Uning mislidek hech narsa yo'q bo'lgan Zotning kalomi, g'oyri maxluq ekanligini, Uning o'xshashi va misli yo'q bo'lgan Zotning sifati ekanligini his qilishi lozimligini ta'kidlaydi. Imom Nasafiyning mana shu sog'lom e'tiqodga asoslangan gaplarida mo'tazila, mujassima va mushabbiha singari adashgan toifalarga raddiyalar bor. Chunki ularning ba'zisi Allohga jism isbot qilishsa, ba'zisi Qur'oni karimni maxluq deyishadi. Boshqa bir toifasi esa U Zotni maxluqlarga o'xshatadi va aqidada adashishadi.

Alloma eslatma qilish asnosida Alloh taolo bandalarning qalbiga Qur'oni karimni yodlashlikka qodir bo'lgan quvvatni bermaganida uni yodlay olmasligi, uni chuqur anglash, undan saboq chiqarish, unda kelgan itoat va ibodat masalalaridan eslatma olish hamda o'z huquq va farzlarini bajarishlik uchun uning salobatidan zaif va nochor holga tushib, bu narsalarga qodir bo'laolmasligini aytib quyidagi oyatni keltiradi:

"Agar ushbu Qur'onni tog'ga tushirganimizda edi, uning Allohdan qo'rqqanidan titrab-qaqshab va parchalanib ketganini ko'rarding..." (Hashr surasi 21-oyat) [1:2a].

Imom Nasafiy ushbu bobda Qur'onning fazilati, uni o'rganuvchi, o'rgatuvchi, o'quvchi, yod oluvchi, tinglovchi, unga amal qiluvchining fazilati, savobi, ikki dunyodagi oliy darajasi haqida kelgan yigirmadan ortiq hadislarni keltiradi. Mana shu hadislarni zikr qilish mobaynida to'g'ridan-to'g'ri hadisning o'zini keltirmasdan uning roviylarini ham bayon qilib o'tadi va aksar xolatlarda ushbu hadisning sahih, hasan, g'arib kabi xolatiga ham e'tibor beradi. Masalan, birinchi zikr qilgan hadisini quyidagicha keltiradi:

"Termiziy Abu Sa'ddan rivoyat qiladi. U aytdi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Rob taborak va taolo aytadi: Kimni Qur'on mendan so'rashlikdan band qilib qo'ysa, unga so'raguvchilarga berilganidan afzalini beraman".

Aytdi: Alloh kalomining boshqa soʻzlardan afzalligi, Allohning maxluqotlaridan afzalligi kabitdir. Aytdi: Bu hasan, gʻarib hadisdir” [1:2a].

Ushbu tafsir muqaddimasidagi uchinchi bobni “Alloh taoloning kitobini tilovat qilish kayfiyati, undan makruh va harom boʻlgan narsalar hamda bu boradagi insonlarning ixtilofi” deb nomlaydi. Bu bobda muallif Qurʼon tilovati borasidagi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan koʻpgina hadislar, u zotning Qurʼonni qanday qiroat qilganliklari, tilovatning kayfiyati borasidagi ulamolarning qarashlarini keltiradi. Shu oʻrinda bu masaladagi oʻz fikrini ham aytib, uni hadislar, ulamolarning soʻzlari bilan quvvatlaydi. Dastlab Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qiroatlari borasida kelgan hadislarni keltiradi. Ulardan biri quyidagi hadisdir:

“Imom Buxoriy Qatodadan rivoyat qiladi. U aytdi: “Anasdan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qiroatlari haqida soʻradim”. U aytdiki: “Madni choʻzardilar”. Soʻngra بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ ni oʻqidi, بِسْمِ اللَّهِ ni choʻzardilar, الرَّحْمَنِ ni choʻzardilar, الرَّحِيمِ ni choʻzardilar” [1:3b].

Soʻngra Qurʼon oʻqigan vaqtda ovozni koʻtarib, kuy qilib oʻqishlik borasidagi ulamolarning qarashlarini keltirib ularni ikkiga boʻladi. Dastlab yuqoridagi holatni karohiyatli sanagan sahobalar, ulamolar va ularning dalillarini keltiradi. Ushbu qarash tarafdorlari sifatida Said ibn Musayyab (vaf. 715), Said ibn Jubayr (vaf. 714), Qosim ibn Muhammad (vaf. 601), Hasan (ibn Abul Hasan Yasor Abu Said al-Basriy. Vaf. 728), Ibn Sirin (vaf. 729), An-Naxoiy (Ibrohim ibn Yazid ibn Qays Abu Imron an-Naxoiy. Vaf. 717), Molik ibn Anas (vaf. 795), Ahmad ibn Hanbal (vaf. 855) va boshqalarni sanab oʻtadi. Ushbu taraf vakillaridan keltirgan hadislaridan biri quyidagicha:

“Qays ibn Uboddan rivoyat qilinadi. U aytdiki: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning asʼhoblari zikr (qiroat) paytida ovozni koʻtarishni yomon koʻrar edilar” [1:3b].

Ikkinchi toifa bu narsaning Qurʼon bilan ovozni chiroyli qilsa jismga taʼsir qilish va qalbga yetib borishda yaxshiroq boʻlganligi uchun joiz deganligini aytadi. Ushbu qarash tarafdorlari sifatida Imom Abu Hanifa (vaf. 767) va uning asʼhoblari, Imom Shofeiyy (vaf. 820), Abdulloh ibn Muborak (vaf. 797), Abu Jaʼfar at-Tabariy (vaf. 923), Nazr ibn Shumayl (vaf. 818), Abul Hasan ibn Battol (vaf. 1057) va boshqalarni, ular

keltirgan dalillari bilan birga zikr qiladi. Shundan soʻng muallif oʻz fikrini bildirib, birinchi toifa ulamolarning qavli toʻgʻriroq ekanligini aytadi va bu borada oʻzi tayangan hamda ulamolar keltirgan dalillarni bayon qilib beradi. Ikkinchi toifa dalil qilgan, Baro ibn Ozibdan rivoyat qilingan quyidagi hadisni shunday sharhlaydi:

Rasululloh alayhissalom aytdilar: “Qurʼonni (qiroatni) ovozlarinigiz bilan bezangiz”. (Abu Dovud va Nasoiy rivoyati).

“Ular hujjat qilib keltirgan avvalgi hadisga kelsak, u zohiridagidek emas, albatta, maqlub (agʻdarishlik) bobidandir. “Yaʼni ovozlarinigizni Qurʼon bilan bezanglar” deganidir” [1:4a]. Ushbu fikrlariga Xattobiy va boshqalardan dalillar keltiradi.

Asarning toʻrtinchi bobini Qurʼon ahlini, ilm ahlini riyo va undan boshqa narsalardan ogoh etish bobi deb nomlaydi. Dastlab bu bobni Alloh taoloning quyidagi soʻzlari bilan boshlaydi:

“Va Allohga ibodat qilinglar va Unga hech narsani shirk keltirmanglar...” (Niso surasi 36-oyat).

“...Bas, kim Robbiga roʻbaroʻ kelishni umid qilsa, yaxshi amal qilsin va Robbi ibodatiga biron tani sheʼrik qilmasin” (Kahf surasi 110-oyat) [1:6a].

Shundan soʻng Imom Muslim Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan riyokorlar, Qurʼoni karimni riyo uchun oʻrganadiganlarning oxiratdagi ayanchli oqibatini bayon qiluvchi hadisni keltiradi va Qurʼonni yod olhanlar va tolibi ilmlarga zarur boʻlgan amallarni bayon qilib shunday deydi: “Qurʼonni yod oluvchi va tolibi ilmga oʻz nafsida Allohga taqvo qilishligi hamda amalni xolis Alloh uchun bajarishligi vojib boʻladi. Oldin U zot uchun yomon koʻrilgan ishni qilgan boʻlsa, darhol tavba qilsin va U zotga qaytsin. Talab qilishlikda va amalida ixlos qilishni boshlasin. Boshqalarga homili Qurʼonga berilganchalik ajr berilmagani kabi, ular lozim tutishi kerak boʻlgan narsalar boshqalarga lozim boʻlganidan koʻra koʻproqdir” [1:6a]. Ushbu bobda muallif asosan Qurʼon homillariga eslatma, koʻrsatma boʻlgan bir qancha hadislarni keltiradi. U hajm jihatidan kichkina boʻlsada, unda Qurʼon ahllari uchun eng asosiy boʻlgan narsani bayon qilib bergan.

Ushbu tafsir muqaddimasidagi beshinchi bob, toʻrtinchi bobning uzviy davomi boʻlib, muallif uni “Qurʼon sohibi oʻzini tutishi uchun

zarur bo'lgan narsalar va u g'ofil bo'lmashligi kerak bo'lgan narsalar bobi" deb nomlaydi. U Qur'on sohibi hamda ilm talab qiluvchining talabi va amali faqat Alloh uchun bo'lishi kerakligi va bu birinchi o'rindagi masala ekanligini qattiq ta'kidlaydi. Shundan so'ng homili Qur'on uchun zarur bo'lgan juda ko'plab sifatlarni, u saqlanishi kerak bo'lgan bir qancha qusurlarni aytib o'tadi va hadislardan dalillar keltiradi. Uning uchun lozim bo'lgan sifatlardan Alloh taologa hamd aytuvchi, ne'matlariga shukr qiluvchi, U Zotni har doim zikr qiluvchi, Uning azobidan qo'rquvchi, rahmatidan umid qiluvchi, o'z zamonasining olimi bo'lishligi, har xil shubhali yo'llardan o'z nafsini saqlaguvchi, kam gapirib, kam kuluvchi, undan boshqalar zarar ko'rmasligi, kechirimli bo'lishligi, yaxshilikda yordam beradigan, rostlik, go'zal xulqlarga chaqiruvchi kishilar bilan do'st bo'lishi va boshqa ko'pgina go'zal sifatlarni zikr qiladi. Homili Qur'on Allohning murodini yaxshi tushunmog'i, Qur'on hukmlarini, uning farzlarini, uning makkiy va madaniylarini, nosix va mansuxlarini, e'rob va g'ariblarini bilishi kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu bobda Imom Nasafiy go'zal bir uslubni qo'llaydi. Ya'ni gohida banda ilmni ba'zi bir hoyu-havas, shon-shuxratlarni ko'zlab boshlashi, keyinchalik bu niyati xatoligini anglab, tayba qilib, xolis Alloh uchun amal qilishga o'tishi mumkinligini va bu xolat yaxshi ekanligini aytadi. Ba'zi mashhur ulamolarning hayotidan, gaplaridan namunalar keltiradi. Bu narsa tolibi ilmni, Qur'on ahlini noumid bo'lib qolishidan saqlaydi va o'zini isloh qilishi zarurligini anglashiga qattiq turtki bo'ladi.

Shundan so'ng keladigan oltinchi, yettinchi va sakkizinchi boblarni e'robul Qur'on, uni o'rganish, unga rag'batlantirish va Qur'onni e'rob qilib o'quvchining savobi borasida kelgan rivoyatlar, Qur'on tafsiri va uning ahlining fazilati to'g'risida kelgan xabarlar hamda homili Qur'on borasida kelgan rivoyatlar bobi deb nomlaydi. Ushbu uch bob hajm jihatidan qisqa-qisqa boblar bo'lib, muallif bunda asosan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va sahobalardan kelgan rivoyatlarni keltirish bilan kifoyalanadi. Imom Nasafiy qolgan boblarda ham Qur'oni karimga oid zaruriy ilmlardan bir qanchasini keltirib o'tadi. U zikr qilgan masalarga etibor bersak Qur'on ahllari, ilm ahllari uchun eng zarur va kerakli ko'rsatmalar ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu bilan u tafsir o'qishdan oldin o'quvchini bilim va odob-axloq

jihatidan tarbiyalaydi, ilmni xolis o'rganib undan ko'p foyda olishga undaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Umar Nasafiy nafaqat ta'rix, aqida yo'nalishlarida, balki, Qur'on ilmlari va tafsir yo'nalishlarida ham yetuk ulamolardan biridir. U tafsir sohasida o'zgacha bir uslubni qo'llab uning rivojida o'zining ulkan hissasini qo'shdi. O'zining "Al-akmal al-atval" asarida oyatlar sharhidan kirishishdan avval o'quvchi uchun eng zaruriy bo'lgan bir qancha Qur'on ilmlarini muqaddima qildi. Bugun ham uning qalamiga mansub bu kitob birgina Movarounnahr emas, balki, butun islom olamida e'tirofga sazovor asarlardan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Hofiz Najm ad-Din Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Akmal al-atval.. 4 juz. – Qohira: Dor al-kutub val-vasoiq al-qavmiyya. Qo'lyozma. № 37.
2. Al-Hofiz Najm ad-Din Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Akmal al-atval. – Qohira: Dor al-kutub val-vasoiq al-qavmiyya. Qo'lyozma. № 38.
3. Muhammad ibn Ahmad ibn Abubakr al-Qurtubiy. Al-jomi li ahkom al-Qur'on. Muhammad Rotib Poshsho. Qo'lyozma. № 46159.
4. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 624 б.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Куръон илмлари. – Т.: "Ҳилол-Нашр" нашриёти, 2013. – 504 б.
6. Обидов Р. Куръон ва тафсир илмлари. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2003. – 448 б.
7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. 6-жуз. – Т.: "Ҳилол-Нашр" нашриёти, 2017. – 504 б.
8. Jaloliddin as-Suyutiyy. "Al-Itqon fi ulum al-Qur'on". 2 juz. Markaz dirosatul Qur'aniyya. – Bayrut: Dor alfikr, 2009.
9. Shamsiddin al-Qurtubiy. Al-Jomi li-ahkom al-Qur'on. 24 juz. – Bayrut: Muassasa ar-Risala, 2006.